



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2024 yil 3-son

Volume 9, Issue 3, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 3-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov A.B.Xayitov G.F.Abdumalikova	<i>Labor market transformations in developing countries</i>	5-23
B.E.Mamaraximov	<i>Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va yoshlar bandligini ta'minlashning davlat siyosati</i>	24-29
J.D.Jo'rayev	<i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligini ta'minlash</i>	30-37
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida bitiruvchilarni bandligini ta'minlash tizimining matematik modelini optimallashtirish</i>	38-45
T.T.Xalikov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish</i>	46-51
F.X.Mamatova	<i>Barqaror iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari</i>	52-62

INSON KAPITALI

K.X.Abduraxmonov S.S.Ismoilov	<i>Роль стратегических инвестиций в развитие человеческого капитала в условиях цифровой трансформации банковской системы Узбекистана</i>	63-74
S.B.G'oyipnazarov T.N.Azimov	<i>Inson kapitalini raqamli rivojlanish holatini baholashning uslubiy asoslari</i>	75-88

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

G.Q.Abduraxmonova M.Sh.Xaydarova	<i>Davlat korxonalarida inson resurslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aralash usul yordamida baholash</i>	89-110
U.X.Abdukarimov	<i>Davlat fuqarolik xizmatchilarining salohiyatini rivojlantirish: yangi davr talabi va imkoniyatlari</i>	111-120
M.A.Qayumova	<i>Strategies for enhancing faculty motivation: evidence-based practices for higher education institutions</i>	121-131
X.A.Ortiqov G.X.Anvarova	<i>Muassasalarda yil o'rtasida shtat jadvaliga o'zgartirish kiritish tartibi</i>	132-138
M.A.Yusupova	<i>Bank sohasida sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali mehnat tashkilotini transformatsiya qilish</i>	139-152

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
Z.Dj.Adilova	<i>Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni</i>	153-162
B.K.Kusekeyev	<i>rivojlantirish istiqbollari</i>	
B.Z.Arzimatov	<i>Привлечения инвестиций в сферу туризма в</i>	163-170
	<i>Узбекистане: тенденции и события</i>	
N.O.Jumaniyozov	<i>Mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning</i>	171-180
	<i>O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri</i>	
K.J.Sodiqxo'jayev	<i>Moliyaviy resurslar defitsiti sharoitida xo'jalik</i>	181-187
	<i>yurituvchi subyektlarni samarali boshqaruv</i>	
	<i>strategiyasini takomillashtirish</i>	
N.S.Yuldashev	<i>O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror taraqqiyotiga</i>	188-195
	<i>xorijiy investitsiyalar ta'siri</i>	



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Adilova Zulfiya Djavdatovna

TDIU, Marketing kafedrası professori

Kusekeyev Bayram Kallibekovich

Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

Qoraqalpog' davlat universiteti doktoranti

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a113

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari, mavjud imkoniyatlar va kelgusidagi rejalar haqida batafsil tahlil qilinadi. Turizm sohasidagi investitsiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali Qoraqalpog'iston mintaqasi tez orada jahon miqyosida mashhur sayyohlik manzillaridan biriga aylanishi mumkin. Shuningdek, maqolada statistik ma'lumotlarni guruhlash va taqqoslash orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida turizm infratuzilmasi holati yoritib berilgan va mintaqqa iqlimining turizmga ta'siri ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, turizm, infratuzilma, mintaqqa iqlimi, marketing, turistlar oqimi.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАГИСТАН

Адилова Зульфия Джавдатовна

ТГЭУ, Профессор кафедры Маркетинга

Кусекеев Байрам Каллибекович

Заместитель руководителя управления

туризма Республики Каракалпакстан,

Докторант Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ текущих вопросов развития туризма в Каракалпакстане, текущих возможностей и планов на будущее. Благодаря инвестициям и инновационным подходам в сфере туризма регион Каракалпакстан в скором времени может стать одним из известных туристических направлений мира. Также в статье путем группировки и сравнения статистических данных освещено состояние туристической инфраструктуры в районах Республики Каракалпакстан, а также изучено влияние климата региона на туризм.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, туризм, инфраструктура, климат региона, маркетинг, туристический поток.

PROSPECTS OF TOURISM DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Adilova Zulfiya Djavdatovna

TSUE, Professor of the Department of Marketing

Kusekeev Bayram Kallibekovich

Deputy Head of the Department of Tourism of the Republic of Karakalpakstan

Doctoral student of Karakalpak State University

Abstract. This article provides a detailed analysis of current issues of tourism development in Karakalpakstan, current opportunities and future plans. Through investments and innovative approaches in the field of tourism, the region of Karakalpakstan can soon become one of the famous tourist destinations in the world. Also, the article highlights the state of tourism infrastructure in the districts of the Republic of Karakalpakstan by grouping and comparing statistical data, and the influence of the region's climate on tourism is also studied.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, tourism, infrastructure, regional climate, marketing, flow of tourists.

Kirish

Qoraqalpog'iston, Markaziy Osiyoning noyob tabiati, boy tarixi va madaniy merosi bilan ajralib turadigan mintaqalardan biridir. So'nggi yillarda hukumat va mahalliy aholi tomonidan turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mintaqaning boy tarixiy va madaniy merosini dunyoga namoyish qilish, tabiiy go'zalliklarini saqlab qolish va zamonaviy infratuzilmani yaratish orqali sayyohlar oqimini oshirish maqsad qilingan. Bu borada turizm resurslariga boy Qoraqalpog'iston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy-madaniy obidalari, qo'riqxonalari va rang-barang landshaftlari bilan noyob turizmning maxsus turlarini rivojlantirish mumkin.

Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi turizmi imkoniyatlaridan ba'zi o'ziga hos jihatlari va istiqbollarini ko'rib o'tamiz:

– tarixiy va madaniy turizm yo'nalishi bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, mintaqqa qadimiy tarixga ega bo'lib, antik, ilk o'rta asrlar va o'rta asrlarga oid me'moriy majmualar joylashganligi tashrif buyuruvchilarga mintaqaning boy tarixiy-madaniy merosi bilan tanishish imkonini beradi;

– mintaqadagi Orol dengizi jiddiy ekologik muammolarga duch kelayotgan bir vaqtda, uning chekinib borayotgan suvlari va o'zgaruvchan landshaftlari ekoturistlar va tadqiqotchilarning e'tiborini tormoqda;

– turistlar va tadqiqotchilar Orol dengizi hududi inson faoliyatining noto'g'ri olib borilishi natijasida yuzaga kelgan ekologik oqibatlarni o'rganish, atrof-muhitni asrash va qayta tiklash borasidagi olib borayotgan faoliyatni muhokama qilish uchun imkoniyatlarni beradi;

– mintaqada Barsa-Kelmes qo'riqxonasi va Ustyurt platosi kabi qo'riqlanadigan hududlar joylashganligi, turistlar uchun ekotizimlar, yovvoyi tabiatni, qushlarni kuzatish, ochiq havoda sayr qilish va cho'lda qurilgan maxsus lagerlarda tunashni taklif etadi;

– Qoraqalpoq xalqining madaniyati o'zining qadimiy va an'anaviy hunarmandchiligi, jumladan, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik buyumlari bilan mashhur bo'lib, turistlarga amaliy san'ati bilan tanishish va hunarmandlar tomonidan tayyorlangan

mahsulotlarni sotib olishlari bilan birgalikda madaniy almashinuvni rivojlantirishlari mumkin;

– mintaqaning keng Qizilqum cho’li o’zining imkoniyatlari bilan, hususan, cho’l safarilari, tuya va otlarda sayr qilish, ochiq osmon ostida yulduzlarni tomosha qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Qoraqalpog’iston o’zining sayyohlik salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarish uchun infratuzilmani takomillashtirish, transport logistika aloqasini rivojlantirish, turmarshrutlarni targ’ibot qilish va marketing tadbirlarini doimiy ravishda olib borish, madaniy va tabiiy obyektlarni asl ko’rinishida saqlash kabi omillar xalqaro bozorda mintaqa turizmiga bo’lgan qiziqishni ortiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Qoraqalpog’istonning turizm salohiyati nafaqat mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, balki madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Turizm sohasining iqtisodiy va madaniy rivojlanishga qo’shgan hissasini tahlil qilish maqsadida, Qoraqalpog’iston va O’zbekistonning turli hududlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada bir qancha olimlar turizmni rivojlantirish masalalariga bag’ishlangan tadqiqotlar olib borishgan.

N.Zufarova [11] Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida O’zbekistonda turizm sohasidagi iqtisodiy tahlillarni amalga oshirib, mamlakatda turizmni rivojlantirish bo’yicha strategik yondashuvlar ishlab chiqishga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlari O’zbekistonning turli hududlarida turizm sohasini rivojlantirish uchun zarur bo’lgan iqtisodiy asoslarni yoritib beradi.

Soliev Bahodir [12] Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universitetida turizmning madaniy va ijtimoiy jihatlarini o’rganib, bu sohadagi muammolar va imkoniyatlarni tahlil qilgan. Uning ishlarida turizm va madaniyat o’rtasidagi bog’liqlik, turizmning jamiyatga ta’siri kabi masalalar keng yoritilgan.

Bundan tashqari mahalliy olimlardan, Z.Adilova [13], A.Zohidov [14], A.Tuychiyevlar [15] mamlakatda turizmni rivojlantirish, turizmning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini o’rganish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Qoraqalpog’istonda turizmni rivojlantirish bo’yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Ushbu usul orqali mintaqaning turizm salohiyati, imkoniyatlari va mavjud muammolariga oid aniq ma’lumotlar to’plandi. Statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, Qoraqalpog’istonda turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanildi. Statistik ma’lumotlarni to’plashda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy saytidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm bozori istiqbolli hisoblanadi, sababi mintaqa o‘zining boy tarixiy merosi, tabiatining go‘zalligi, etnografiyasi noyob ekologik landshaftlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Qoraqalpog‘iston mavud turistik resurslarni o‘zlashtirishda faol sarmoyalarni jalb qilishi va barqaror rivojlanishni ta‘minlashi orqali turistlarni jalb qilishi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurayotgan xorijlik turistlar mamlakatimizning boshqa mintaqalarida joylashgan turistik firma va tashkilotlar tomonidan olib kelinmoqda. Bu kabi muammolarni yechimini hal qilishda mintaqaviy turizm bozorida marketing tadqiqotlarni va yangi xizmat turlarini o‘zlashtirish lozim bo‘ladi.

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni (2023-yil ko‘rsatkichlari) [1]

Tumanlar	Turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni, birlik	Xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar, kishi*	Ulardan		Kishi-kun (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar uchun)
			Bir kunlik tashrif buyuruvchilar (ekskursantlar)	Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar (sayohlar)	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13	9704	5247	4457	10616
Nukus shahri	3	3094	1324	1752	4068
Amudaryo	-	-	-	-	-
Beruniy	2	720	700	20	48
Bo‘zatov	-	-	-	-	-
Qorao‘zak	-	-	-	-	-
Kegeyli	-	-	-	-	-
Qo‘ng‘irot	1	900	510	390	1170
Qonliko‘l	-	-	-	-	-
Mo‘ynoq	3	2580	940	1640	3270
Nukus	-	-	-	-	-
Taxiatosh	-	-	-	-	-
Taxtakopir	-	-	-	-	-
To‘rtko‘l	2	12335	1060	175	620
Xo‘jayli	1	250	200	50	150
Chimboy	-	-	-	-	-
Shumanay	-	-	-	-	-
Ellikqal‘a	1	925	495	430	1290

* Faqat viza, chet el pasportini rasmiylashtirish, mehmonxonada joy band qilish va shunga o‘xshash xizmatlar ko‘rsatilgan fuqarolarni qo‘shgan holda hisoblangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatilgan (1-jadval) tashrif buyuruvchilar bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlar tahlili ko‘rsatishicha, asosiy turistlar oqimi Nukus shahriga 3094 ta bo‘lib, jami xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilarning 31,8%ini tashkil etadi. Respublikaga tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatishda nisbatan rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan Mo‘ynoq, Beruniy, Qo‘ng‘irot, To‘rtko‘l, Xo‘jayli, Ellikqal‘a tumanlari yildan-yilga ko‘rsatkichlarini yaxshilab bormoqda. Shu bilan birgalikda turistik resurslarga boy bo‘lishiga

qaramasdan Amudaryo, Bo’zatov, Qorao’zak, Kegeyli, Qonliko’l, Nukus, Taxiatah, Taxtako’pir, Chimboy, Shumanay tumanlari bironta ham tashrif buyuruvchilarga xizmat ko’rsatmagan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida bu tumanlarda bironta ham turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar ro’yhatga olinmaganligidir.

2-jadval

**Qoraqalpog’iston Respublikasida mehmonxona va shunga o’xshash joylashtirish vositalarida band bo’lgan xodimlar to’g’risida ma’lumot
(kishi hisobida) [1]**

Ko’rsatkichlar	Jami asosiy stavkada gilar	Shu jumladan ma’lumotga egalar				Umumiydan ayollar soni	Bundan tashqari o’rindoshlar
		Oliy	Ulardan kasbiy sayyohlik ma’lumoti	O’rta maxsus	Ulardan kasbiy sayyohlik ma’lumoti		
Qoraqalpog’iston Respublikasi	201	66	6	135	7	94	4
Nukus shahri	149	47	5	102	7	82	4
Amudaryo	5	1		4			
Beruniy	1	1					
Bo’zatov							
Qorao’zak	1			1			
Kegeyli							
Qo’ng’irot	15	3		12		6	
Qonliko’l							
Mo’ynoq	8	5		3			
Nukus							
Taxiatosh							
Taxtako’pir	2	1		1		1	
To’rtko’l	12	6	1	6		4	
Xo’jayli	2	2					
Chimboy							
Shumanay							
Ellikqal’a	6			6		1	

Qoraqalpog’iston Respublikasida mehmonxona va shunga o’xshash joylashtirish vositalarida band bo’lgan xodimlar bo’yicha olib borilgan tahlillar ko’rsatishicha, Nukus shahrida 149 ta xodim faoliyat olib borayotgan bo’lib, ularning 47 tasi oliy, o’rta maxsus ma’lumotlilar 102 tani, shundan ayollar 82 tani tashkil qiladi. Bu ko’rsatkichlar bo’yicha tumanlar past ko’rsatkichlarga ega bo’lib, Amudaryo tumanida 5 ta xodim, ulardan 1 tasi oliy 4 tasi o’rta maxsus ma’lumotga ega, Qo’ng’irot tumanida oliy ma’lumotli xodimlar soni 3 ta, o’rta maxsus ma’lumotlilar 12 tani, To’rtko’l tumanida 6 ta oliy, 6 ta o’rta maxsus ma’lumotlilar, qolgan tumanlarda bu boradagi ishlar talab darajasida emas. Taxiatah, Kegeyli, Qonliko’l, Nukus, Chimbay, Shumanay tumanlarida bironta ham turizm sohasida mutaxassislar faoliyat olib bormasligi bu sohaga umuman e’tibor yo’qligidan dalolat beradi. Qoraqalpog’iston Respublikasida Qoraqalpoq Davlat Universitetida turizm sohasiga oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlaydigan yo’nalish bor bo’lib, universitetni tamomlagan aksariyat bitiruvchilar o’zlarining mutaxassisliklari bo’yicha ishga jalb qilinmagan. Taxiatah, Kegeyli, Qonliko’l, Nukus, Chimbay,

Shumanay tumanlaridagi turistik resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish uchun mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

3-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati [1]

Ko'rsatkichlar	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni, birlik	Ulardagi obyektlar, birlik	Nomer fondi, birlik		Joylashtirilgan shaxslar soni, kishi	Shu jumladan fuqarolar		
			Nomerlar (xonal ar)	Joylar		O'zbekiston	MDH mamlakalaridan	Uzoq xorijiy mamlakatlardan
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25	23	505	2071	14633	14583	95	
Nukus shahri	2	2	91	270	912	893	19	
Amudaryo	1	1	4	120	550	550	-	
Beruniy	4	4	34	185	1118	1118	-	
Bo'zatov								
Qorao'zak								
Kegeyli								
Qo'ng'iro't	3	3	90	225	2889	2889		
Qonliko'l	1							
Mo'ynoq	3	3	57	290	1575	1575		
Nukus	1							
Taxiatosh	2	2	69	250	3866	3790	76	
Taxtakopir								
To'rtko'l	1	1	15	150	969	969		
Xo'jayli	1	1	7	80	899	899		
Chimboy								
Shumanay								
Ellikqal'a	6	6	138	501	1855	1855		

Jahon turizmida bo'layotgan katta o'zgarishlar va tendensiyalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, turistik mavsumiylik o'rtasidagi nomutonositliklarni kamaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Aslini olib qaraydigan bo'lsak, turizmning asosiy xususiyatlaridan biri ham uning mavsumiyligidir. Buni shunday tushunish kerakki, turizm talablarning ma'lum bir vaqt mobaynida yuqoriga ko'tarilishi va aksincha ma'lum bir vaqt mobaynida talabning pasayib borishi bilan izohlash mumkin.

Mintaqa iqlimidan kelib chiqib qaraladigan bo'lsa yanvar, fevral va dekabr oylari turizm uchun juda noqulay vaqt hisoblanadi. Bu vaqtda mintaqaning katta qismi cho'l zonasida joylashganligi uchun ob-havo keskin o'zgaruvchi xususiyatga ega bo'ladi. Past darajali turizm mavsumi bo'lib iyun, iyul va noyabr oylari hisoblanadi. iyun, iyul oylarida mintaqada yozning jazirama issig'i hukm suradi. Shu sababli sayohatlarni amalga oshirishda bir qator noqulayliklarni tug'diradi. Bundan tashqari hududga tashrif buyurayotgan turistlarning yoshi bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aksariyati 55-65 yoshdagilar tashkil qiladi. Ular yozning issiq oylarida ko'pincha sayohatlarni rejalashtirmaydi.

Mintaqa turizm bozori tahlili ko'rsatishicha tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati tarixiy obyektlar, me'moriy yodgorliklarni ko'rish uchun tashrif buyuradigan turistlar toifasidan ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Turizm bozori tahlillari ko'rsatishicha mintaqa turizmini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

havo yo'llari, temir yo'llar hamda avtoyo'l tarmoqlarini rivojlantirish va infratuzilmani takomillashtirish;

turistik bozorga yangi innovasion xizmatlar taqdim etish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini xalqaro standartlarga yetkazish;

xodimlarning xizmat ko'rsatish madaniyati va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

mintaqa turizm bozorida marketing tadbirlarini kuchaytirish va mintaqa brendini yaratish.

Bu borada 2022-2026-yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish strategiyasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni kelajakda rivojlantirish parametrlari (4-jadval) ishlab chiqilgan.

4-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2026 yilgacha bo'lgan davrga turizmni rivojlantirish ko'rsatkichlari [2]

Ko'rsatkichlar nomi	2022	2023	2024	2025	2026
Mahalliy turistlar soni (ming kishi)	552	663	774	885	996
Xorijiy sayohlar soni (ming kishi)	50	80	110	150	180
Xizmatlar eksporti (million AQSh dol.)	13,5	25	36,5	48	59,5
Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (birlik)	1 005	1 200	1 360	1 555	1 905
Joylashtirish vositalaridagi xonalarlarning bandligi (%da)	35,0	43,0	51,0	59,0	74,0
Joylashtirish vositalaridagi joylar soni (koyka, birlik)	1 990	2 260	2 520	2 850	3 370
Mehmonxonalar soni (birlik)	36	40	42	44	50
Oilaviy mehmon uylar soni (birlik)	48	57	66	78	92
Yotoqxonalar soni (birlik)	23	29	35	41	48
Internet bilan qamrab olinishi darajasini oshirish (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda)	10	12	14	16	20

Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilgan ishlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2022-yilda 50,1 ming nafar xorijiy turistlar, 600,8 ming mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatilgan bo'lib, turizm xizmatlari eksporti 138 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Xorijiy va mahalliy turistlarga 57 ta turoperator va turagentlar tomonidan xizmatlar ko'rsatilgan. Xorijdan tashrif buyurgan turistlarni davlatlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, asosan Rossiya, Qozog'iston, Fransiya, Turkiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Xitoydan kelganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib oʻtilgan tendensiyani nafaqat mintaqa turizm bozori boʻyicha, balki u global tendensiyaga ega boʻlganligi uchun turizm mahsulotlari va xizmatlarining eng asosiy jihatlaridan biri sifatida qabul qilish kerak. Sababi, bu kabi omillarga yetarlicha baho bermaslik, mintaqa turizm bozorida maʼlum darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mintaqa turizm bozorida mavsumlar oʻrtasidagi nomutonasibliklarni kamaytirish va turistlarni hududga jalb qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak boʻladi:

- mehmonxona va transport xizmatlari uchun chegirmali narxlarni joriy qilish;

- tarixiy-madaniy yoʻnalishlarda tashrif buyurgan turistlar uchun diqqatga sazovor joylarni koʻrish, muzeylarga tashriflarni (nomavsumiy vaqtlarda bu harajatlar mehmonxona va transport xizmatlari hisobidan qoplash yoʻllarini joriy qilish) bepul qilish;

- turistlarga koʻrsatilayotgan xizmatlarni yangi shaklg oʻtkazish, xizmat koʻrsatish shakliga qarab innovasiyalarni joriy qilish;

- mintaqada yangi xizmatlarga asoslangan turizm hududlarini (rekreasion, safari, sport) oʻzlashtirish va yaratish talab etiladi.

Mintaqada yangi turizm hududlarini tashkil etishni koʻpchilik mutaxassislar iliq qabul qilmaydi. Sababi, bu harakatlar maʼlum bir moliyaviy mablagʻlarni jalb qilishni talab qilsa, boshqa bir tomondan yangi mahsulot va xizmatlarga isteʼmolchilarni, yaʼni turistlarni jalb qilish oson emas deb hisoblaydi.

Yuqorida koʻrib oʻtganimizdek hudud turizm bozori isteʼmolchilari asosan yoshi katta turistlar ekanligidan kelib chiqiladigan boʻlsa, nomavsum davrlarda yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishda quyidagilarga asosiy eʼtiborni qaratishimiz lozim:

- mamlakat aholisining katta qismini yoshlar tashkil qilishini hisobga olgan holda yoshlarbop tadbirlar, rang-barang dasturli tadbirlar va festivallarni tashkil qilish;

- hududagi diniy va ziyorat markazlariga koʻproq eʼtiborni qaratib, ziyoratchilarga (diniy va ziyorat turizmida mavsumiylik degan tushuncha ahamiyatsiz hisoblanadi) qulay sharoitlarni yaratish;

- hududning oʻziga hos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda maʼlum bir sohalar olimlari, tadqiqotchilari va ekspertlari uchun xalqaro ilmiy konferensiya, anjumanlar, MICE (ishbilarmonlik) turizmini tashkil etish;

- hududning boy etnografiyasini hisobga olgan holda bu yoʻnalishga qiziquvchilarni, teatrni, sanʼatni, folklorni qadirlovchilar uchun maxsus tadbirlarni, yaʼni milliy cholgʻu asboblari boʻyicha tanlovlar, kartina koʻrgazmalari, teatr, “Navroʻz” umumxalq sayillarini, qishloq xoʻjaligi hosil bayramlarini va turli ommaviy tadbirlarni tashkil etishga eʼtiborni qaratishimiz lozim.

Ammo, bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishda xizmat ko'rsatuvchi joylashtirish, ovqatlantirish va transport xizmatlarini narxlarini tushirish hisobiga, nomavsumiy vaqtlarda turmahsulotlarni taklif qilish har doim ham bo'lavermaydi. Sababi, nomavsumiy vaqtlarda ayniqsa qishgi oylarda elektr energiyaga, kommunal xizmatlariga bo'lgan tariflar ham o'sib boradi. Shuning uchun ham ayrim mutaxassislar bu kabi choralarni qo'llab-quvvatlamaydi. Lekin, shu bilan birgalikda turistik diqqatga sazovor joylarga, muzeylarga kirishga, konferensiyalar va festivallar va xalq bayramlarini o'tkazishga maxsus chegirmalarni qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Bizning fikrimizcha, hududning turizm bozorida yangi turmahsulotlar va xizmatlarni taqdim qilish uchun birinchi navbatda uning imidji muhim ahamiyatga egadir. Turizm bozorida turmahsulotlar va xizmatlar imidjiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardir:

- murakkab ekologik sharoitlar;
- past darajadagi xizmat turlari;
- turistlar o'rtasida qiziqish bo'lmagan tadbirlar;
- xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning o'zaro xamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2022-yil sentyabr) 545-sonli qaroridagi Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari.
3. Martha Honey. Ecotourism and Sustainable Development, Second Edition, Book, 2008, 568 p.
4. Richard Butler. The Tourism Area Life Cycle: Conceptual and theoretical issues, Book, 2006, 327 p.
5. [Dallen J. Timothy](#). Tourism and Political Boundaries (1st Edition), Book, 2001, 236 p.
6. [C. Michael Hall](#), [Stephen J. Page](#), The Geography of Tourism and Recreation Environment, Place and Space (4th Edition), Book, 2014, 470 p.
7. UNWTO (2024), Tourism Statistics Database. The latest update took place in 31 January 2024.
8. Na Sha, Robert Cekuta, TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN — CHALLENGES AND OPPORTUNITIES, 1015 15th Street, NW, Suite 380 Washington, DC 20005 202.864.69.58
9. Kasta Law Firm. “Uzbekistan: Government Incentives For Tourism Sector Investment.” <http://www.mondaq.com/x/772038/Hotels+Hospitality/Government+incentives+for+tourism+sector+investment> (retrieved July 26, 2019)
10. Janny Zhang, “Uzbekistan Reforms Hotel Rules in Effort to Boost Tourism”. The Caravel. <https://www.thecaravelgu>.

com/blog/2019/1/30/uzbekistan-reforms-hotel-rules-in-effort-to-boost-tourism (retrieved July 19, 2019)

11. N.Zufarova. Tourism Development in Uzbekistan: Comprehensive Analysis of Current Trends and Future Prospects. December 2023, DOI: [10.55439/GED/vol1_issmaxsusson/a600](https://doi.org/10.55439/GED/vol1_issmaxsusson/a600)

12. Soliev, B. (2020). Cultural Tourism and Its Impact on Socio-Economic Development in Uzbekistan. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti nashriyoti.

13. Z.D.Adilova. Development and assessment factors of HR branding: foreign practice. Monography. Tashkent, 2024, 164 p.

14. Zohidov, A. (2019). Geographical Aspects of Tourism Development in Samarkand and Bukhara. Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.

15. Tuychiyev, A. (2022). Innovative Approaches to Tourism Development in Uzbekistan. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz